

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.T.Tursunova</b>	
Ijtimoiy faoliik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	244
<b>Z.T.Aripov</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	247
<b>N.O.Saidova</b>	
Boshlang'ich maktabgacha yoshdag'i bolalarda miqdoriy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari.....	251
<b>M.A.Abdubannanova</b>	
O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi jarayoni va uning joriy etilishi.....	254
<b>O.A.Ashurova</b>	
Ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati.....	257
<b>B.Latipov</b>	
Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik konsepsiyasining roli .....	261
<b>T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov</b>	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi.....	265
<b>V.T.Jo'rayev</b>	
Oliy ta'lim massasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni .....	269
<b>Z.M.Xursanova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari .....	274
<b>M.A.Jalilov</b>	
O'yin texnologiyalari-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish vositasi sifatida .....	279
<b>Z.X.Siddiqov</b>	
Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda noan'anaviy ta'lim yondashuvlar .....	283
<b>M.G.Zaylobidinova</b>	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish .....	287
<b>Г.П.Наркабилова</b>	
Влияние на формирование профессиональных компетенций будущих педагогов и интеграция в образовательную практику .....	291
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning turli bosqichlari .....	295
<b>N.Q.Olimova</b>	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish .....	299
<b>D.T.Rustamova</b>	
Kichik muktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish modelini takomillashtirish .....	304
<b>Y.U.Egamberdiyeva</b>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisiining kreativlik sifatlarini rivojlantirish .....	309
<b>U.Y.Axmedova</b>	
Texnologik ta'lim asosida kichik muktab yoshidagi o'quvchilarda algoritm tushunchasini shakllantirish .....	313
<b>M.U.Buvajonova</b>	
Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash metodikasi .....	317
<b>M.A.Mamasaidova, S.Sobirova</b>	
Matematikaga oid misol va masalalarni yechishda matematik tafakkurning muhim roli .....	321
<b>M.A.G'ofurova</b>	
Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish .....	325
<b>D.M.Gazieva</b>	
Psychological and pedagogical aspects of media use in education.....	331



UO'K: 371:071 (01)

**TEXNOLOGIK TA'LIM ASOSIDA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA  
ALGORITM TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH**

**ПОНИМАНИЕ АЛГОРИТМА У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ  
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
ФОРМИРОВАНИЕ**

**UNDERSTANDING THE ALGORITHM IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE BASE  
OF TECHNOLOGICAL EDUCATION SHAPING**

Axmedova Umidaxon Yodgorjon qizi

Farg'onan davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lif uslubiyoti" kafedrasini o'qituvchisi

*Annotatsiya*

Ushbu maqolada, ta'lif jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarning texnologiya va matematika fanlarida beriladigan topshiriglarni bajarish jarayonida bolalarda algoritm tushunchasi, algoritmi fikrlash tushunchasini shakllantirish haqida muloxaza yuritilgan. Xususan, rossiyalik olimmlarning Algoritm va axborot tushunchalari haqidagi fikrlari avvalo inson tafakkurida namoyon bo'ishi lozim, ilmiy va uslubiy adabiyotlarda "tafakkuming algoritmi uslubi" tushunchasiga oid fikrlari keltirildi. Ular tomonidan ta'lif oluvchilarni algoritmi fikrlash tushunchasini takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan. Ular algoritmlardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan. Bundan tashqari mamlakatimizning ham bir qator ilimlari tomonidan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda topshiriglarni bajarish davomidagi bajariladigan ketma-ketligi o'rganilgan. Axborot inson hayotini shaklanishidagi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Maqolada Texnologik topshiriglarni asosida algoritmi fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasining 4 ta tamoyillari va 6 ta bosqichlari berib o'tilgan. Texnologik ta'lifning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Mamlakatimizda maktab boshlang'ich sinf darsliklariga berilayotgan e'tibor va ulardagi o'zgarishlarni ta'lif jarayoniga ta'siri sezilarli darajada bilinmoqda. Boshlang'ich sinf darsligidagi mavzular tobora murakkablashib bormoqda. Buning natijasida maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilariga zimmasiga yanada ma'suliyatlil bo'gan vazifani yuklamoqda.

*Аннотация*

В данной статье в процессе обучения рассматривается формирование понятия об алгоритмах и алгоритмического мышления у детей в ходе выполнения заданий, данных учащимся начальных классов в области техники и математики. В частности, идеи российских учёных о понятии алгоритма и информации в первую очередь должны проявиться в мышлении человека, а их представления о понятии «алгоритмический стиль мышления» представлены в научно-методической литературе. Они изучали вопросы улучшения понимания студентами алгоритмического мышления. Они подчеркнули, что использование алгоритмов важно в развитии учащихся начальной школы. Кроме того, ряд учёных нашей страны изучили последовательность выполнения заданий учащимися младшего школьного возраста. Информация является одним из важных факторов формирования жизни человека.

В статье представлены 4 принципа и 6 этапов метода формирования навыков алгоритмического мышления на основе технологических заданий. Обсуждалась важность технологического образования.

В нашей стране в значительной степени известно внимание, уделяемое учебникам для начальной школы и влияние изменений в них на учебный процесс. Темы в учебниках для начальной школы становятся все более сложными. В результате школа возлагает на учителей начальных классов более ответственную задачу.

*Abstract*

In this article, in the process of education, the formation of the concept of algorithms and algorithmic thinking in children during the performance of tasks given to elementary school students in the fields of technology and mathematics is discussed. In particular, the ideas of Russian scientists about the concept of algorithm and information should first be manifested in human thinking, and their ideas about the concept of "algorithmic style of thinking" were presented in the scientific and methodical literature. They studied the issues of improving students' understanding of algorithmic thinking. They emphasized that the use of algorithms is important in the development of elementary school students. In addition, a number of scientists of our country have studied the sequence of tasks performed by students of junior school age. Information is one of the important factors in the formation of human life.

In the article, 4 principles and 6 stages of the method of formation of algorithmic thinking skills based on technological assignments are presented. The importance of technological education was discussed.

In our country, the attention paid to elementary school textbooks and the impact of changes in them on the educational process is known to a significant extent. Topics in primary school textbooks are becoming more and more complex. As a result, the school assigns a more responsible task to primary school teachers.

**Kalit so'zlar:** Ta'lif jarayoni, algoritm, algoritmik fikr, algoritmik fikrlash, boshlang'ich ta'lif, axborot texnologiyalari.

**Ключевые слова:** Образовательный процесс, алгоритм, алгоритмическое мышление, алгоритмическое мышление, начальное образование, информационные технологии.

**Key words:** Educational process, algorithm, algorithmic thought, algorithmic thinking, primary education, information technologies.

## KIRISH

Mamlakatimizda ta'lif tizimiga berilayotgan e'tibor, Prezidentimiz tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, yoshlarimizni bilim olishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar tafsinga sazovor. Aynan bu jarayonda yoshlar bilimini oshirish, mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash, ta'lif oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Bu borada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda texnologiya va matematika fanlarida beriladigan topshiriqlami algoritmik ketma-ketlikdan foydalanib bajarish bir qator qulaylik yuzaga keltiradi.

Axborot inson tafakkuri va fikrlash qobiliyatini qay darajada shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyatning hozirgi davrdagi rivoji axborotlashdirish jarayoni bilan xarakterlanadi.

Texnologik ta'lif — bu o'quvchilarni zamonaviy texnik vositalar va usullar orqali o'qitishga qaratilgan ta'lif turi. Uning asosiy maqsadi o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga va texnik bilimlarini oshirishga o'rgatishdir. Bu maqolada texnologik ta'lif asosida algoritm tushunchasini shakllantirishga bag'ishlanadi.[5]

## ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Algoritm va axborot tushunchalari avvalo inson tafakkurida namoyon bo'ishi lozim. А.И.Газейкина аytganidek, ilmiy va uslubiy adabiyyotlarda "tafakkurning algoritmik uslubi" tushunchasi qo'llaniladi, bu algoritm yaratish qobiliyatini nazarda tutuvchi fikrlashning o'ziga xos uslubi bo'lib, muammoni bir butun sifatida ko'rishga, uni hal qilishga yordam beradigan aqliy naqshlarning mavjudligini talab qiladi. Katta bloklarda, so'ngra lingvistik shakllarda yakuniy natijani olish jarayonini tafsilotlash va ongli ravishda birlashtirish[1]

Algoritmik fikrlash nima degan savolga javob beraylik. Algoritmik fikrlash muommoning yechish jarayonining ketma-ketligi. Ya'ni, biror matematik masalaning hisoblash tartibi. Faqatgina matematik masala emas balki, boshqa fanlardagi berilgan topshiriqlarning bajarilish ketma-ketligi.

T.N. Lebedevaning fikricha algoritmik fikrlashni kognitiv jarayon sifatida tushunish mumkin, bu aniq, maqsadga muvofiq (yoki oqilona) aqliy jarayonlarning o'ziga xos tafsilotlari va kengaytirilgan bloklarini optimallashtirish, rasmiylashtirilgan shaklda taqdim etilgan yakuniy natijaga erishish jarayonini ongli ravishda birlashtirish bilan amalga oshiriladigan aqliy jarayonlar ketma-ketligi mavjudligi bilan tavsiflanadi. Qabul qilingan semantik va sintaktik qoidalar bilan ijrochi tilidagi shakl [2]

## NATIJA VA MUHOKAMA

Texnologik topshiriqlar asosida algoritmik fikrlash qibiliyatlarini shakllantirish metodikasi – bu, o'quvchilarda algoritmik fikrlashni rivojlantirish uchun texnologik topshiriqlarni qo'llash orqali samarali ta'lif metodlarini ishlab chiqish va qo'llash jarayonidir. Bu metodikaning asosiy maqsadi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, muammoni tahlil qilish va yechim topish qibiliyatlarini rivojlantirishdir. Quyida bu metodikaning asosiy tamoyillari va bosqichlari bayon etamiz.

Tamoyillari:

1. Bosqichma-bosqich yondashuv: O'quvchilarga murakkab muammolarni bosqichma-bosqich yechish ko'nikmasini o'rgatish. Har bir bosqichda muammoning kichik qismlari tahlil qilinadi va alohida-alohida yechiladi.

2. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lif: Nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash. O'quvchilarga real hayotdagi muammolar bilan bog'liq texnologik topshiriqlar beriladi.

3. Interfaol ta'lif usullari: O'quvchilarning faol ishtiropini ta'minlash. Guruhlarda ishlash, muhokamalar, loyiha ishlari orgali o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish.

## PEDAGOGIKA

4. Individual yondashuv: Har bir o'quvchining qobiliyati va o'zlashtirish darajasiga qarab individual yondashuv. Bu o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularni motivatsiya qilish va o'zlariga ishonchini oshirishga yordam beradi.

Bosqichlari:

1. Kiruvchi bosqich: O'quvchilarga algoritnik fikrlashning asosiy tushunchalari va tamoyillarini tushuntirish. Algoritmlarning hayotdagi ahamiyatini va qo'llanilish sohalarini ko'rsatish.

2. Nazariy asoslarni o'rganish: Algoritnik fikrlashning nazariy asoslarini o'rganish, algoritmlar va ularning turlari haqida batafsil tushunchalar berish.

3. Oddiy algoritmlami ishlab chiqish: O'quvchilarga oddiy algoritmlar tuzishni o'rgatish. Bu bosqichda oddiy matematik muammolar va kundalik hayotdagi oddiy vazifalarni algoritmlar orqali yechish mashq qilinadi.

4. Murakkab algoritmlar va dasturlash: O'quvchilarga murakkabroq muammolarni algoritmlar orqali yechishni va dasturlash tillaridan foydalanishni o'rgatish. Bu bosqichda o'quvchilar kichik dasturlar yozishni boshlaydilar.

5. Loyihalar va amaliyat: O'quvchilarga loyiha ishlarini bajarish va real hayotdagi muammolarni algoritnik yondashuv orqali yechish vazifalari topshiriladi. Loyihalar individual yoki guruvida bajarilishi mumkin.

6. Tahlil va muhokama: Bajarilgan ishlarga tahlil va muhokama o'tkazish, xatoliklarni aniqlash va tuzatish yo'llarini muhokama qilish. Bu bosqichda o'quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlanadi.

O'quvchilarning o'quv jarayonidagi misollar va usullar mavjud. Algoritnik tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi masalalar yechish jarayonida yuzaga keladi. Fikrlashning algoritnik usuli nafaqat tabiatshunoslik darslarida, balki matematikani o'qitishda ham shakllanadi.

**Texnologik ta'limga ahamiyati**

Texnologik ta'limga o'quvchilarning texnika va texnologiyaga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan. Bu ta'limga turi o'quvchilarni quyidagi sohalarda rivojlantiradi:

- Ijodiy fikrlash
- Muammolarni mustaqil ravishda hal qilish
- Texnik bilimlarni oshirish
- Amaliy ko'nkmalarini rivojlantirish.

Algoritmlarni tushuntirishda vizual vositalardan foydalanish juda samaralidir. Blok-sxemalar va diagrammalar algorit qadamlarini aniq va tushunarlari qilib ko'rsatishga yordam beradi.[3]

Amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari o'quvchilarga algoritmlarni real hayotda qo'llashni o'rgatadi. Masalan, kod yozish va undagi xatolarni topish algoritmlarni tushunishning amaliy usullaridan biridir.

Algoritmlarni turli ssenariylarda qo'llash va ularning samaradorligini tahlil qilish o'quvchilarning tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Algoritmlarni turli sohalarda qo'llanishi mumkin. Masalan, matematika, axborot texnologiyalari, biologiya va boshqa sohalardan misollar keltirish o'quvchilarga algoritmlarning universalligini tushunishga yordam beradi.[4]

## XULOSA

Algoritnik fikrlash nafaqat texnologik topshiriqlarda balki barcha fan topshiriqlari uchun muhim hisoblanadi. Kundalik hayotimiz davomida xatti-xarakatlarmizda ham namoyon bo'ladi. Demak biz bajarayotgan har bir ishimizda qandaydir ketma-ketlikdan foydalanamiz.[5]

Yuqorida aytilgan metodika orqali o'quvchilarning algoritnik fikrlash qobiliyatlarini samarali rivojlantirishga erishish mumkin. Bu, kelajakda ular uchun dasturlash va muhandislik kabi sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhim poydevor bo'ladi.

Texnologik ta'limga asosida algoritm tushunchasini shakllantirish o'quvchilarning texnik bilimlari va amaliy ko'nkmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Vizualizatsiya, amaliy mashg'ulotlar, ssenariylarni tahlil qilish va turli sohalardan misollar keltirish kabi usullar orqali o'quvchilar algoritmlarni to'la tushunib olishlari mumkin. Bu esa ularning kelajakdag'i kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun mustahkam asos bo'ladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. А.И.Газейкина Стили мышления и обучение программированию студентов педагогического вуза // Информационные технологии в образовании. 2006 [Электронный ресурс]. URL: <http://ito.edu.ru/2006/Moscow/l/1/l-1-6371.html>.

2. Т.Н.Лебедева Формирование алгоритмического мышления школьников в процессе обучения рекурсивным алгоритмам в профильных классах средней общеобразовательной школы: дис. канд. пед. наук. Екатеринбург, 2005.

3. U.Y.Axmedova "Boshlang'ich sinf o'quvchilarda algoritmik fikrlashni shakllantirish" // KASB-HUNAR TA'LIMI Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal 2024-yil, 2-son B: 155-158

4. A.R. Mamatqulov "Texnologik ta'limganing asoslari".

5. N.I. Karimova "Algoritmlar va dasturlash asoslari".